O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_______ O. Davranov
2025-yil _______-avgust

O‘ZBEK TILI VA UNI O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI

# TIL O‘QITISHGA OID ILMIY TADQIQOT ASOSLARI

**fani bo‘yicha**

## SILLABUS

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100 000 – Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110 000 – Ta’lim |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti |
| **Ta’lim shakli** | kechki |

**Toshkent – 2025**

| Fan/modul kodi | Fan/modul turi | Ta'lim tili | Ishlab chiqilgan o'quv yili |
|---|---|---|---|
| 302 TO'TM 32 | tanlov | o'zbek | 2025/2026 |

| Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | Semestr | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta' lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami: | ma' ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| **Til o'qitishga oid ilmiy tadqiqot asoslari** | 7 | 4 | 4 | **60** | 20 | 0 | 40 | 0 | **60** | **120** |
| **Jami:** | **7** | **4** | **4** | **60** | **20** | **0** | **40** | **0** | **60** | **120** |

## 1. FANNING MAZMUNI

Til o'qitishga oid ilmiy tadqiqot asoslari – bo'lajak mutaxassisni ilmiy tadqiqotga tayyorlash jihatidan ta'lim jarayoniga tayyorlaydigan ta'limiy kurs. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni hozirgi zamon til ta'limidagi ilmiy tadqiqot metodlari bilan tanishtirishdan iborat. Shuningdek, ilmiy tadqiqot bilan bog'liq eng muhim masalalarni o'rgatish orqali tadqiqot olib borish ko'nikmasini shakllantirish.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

• ilmiy tadqiqotlarning umumiy tavsifi va mazmun mundarijasi, nazariy asoslari, til ta'limiga oid tadqiqotda muammoning qo'yilishi, tadqiqot jarayonlari, ilmiy tadqiqot va uning tarkibiy qismlari, ilmiy tadqiqot metod va metodologiyasi, ilmiy tadqiqot namunalarini rasmiylashtirish tartiblari, tadqiqotda qisqartma, havola va bibliografik ma'lumotlarni berish tartiblari haqidagi bilimlarga;

• ona tili ta'limiga oid ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotni loyihalashtirish, muayyan mavzuga doir tezis, ilmiy maqola yoza olish, adabiyotlar bilan ishlash va ularni saralash, ilmiy materiallarni xalqaro va milliy jurnallarda nashr qila olish kabi amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Til o'qitishga oid ilmiy tadqiqot asoslari fanini loyihalashtirish, talabalarning mustaqil fikr yuritishlari, ilmiy muammoni aniqlab tadqiqot mavzusini ochib berishga, muammoli vaziyatni yechishga ijodiy yondashishni talab qiladigan, masalalarning mohiyatini yoritishga yordam beradigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va ona tili va adabiyot fanini o'qitishning xususiy jihatlarini o'zida aks ettiradigan metodlar (ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar davomida suhbat, savol-javob, muammoli ta'lim texnologiyalari, test)ga tayaniladi. Hamkorlikda o'qitish, jamoaviy taqdimot, individual loyihalar, ta'lim maqsadini ochishga yo'naltirilgan usullardan foydalaniladi.



Bundan tashqari tarqatma, video, audiovizual materiallar elektron vositalardan foydalaniladi. Har bir darsga taqdimot tayyorlanadi va namoyish qilinadi. Talabalar ham mustaqil ta'lim topshiriqlarini referat, mavzu taqdimoti kabi shakllarda topshirishlari lozim bo'ladi.

## 4. TALABALARNING KREDITLARNI OLISH TARTIBI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan Til o'qitishga oid ilmiy tadqiqot asoslari fanidan 7-semestr 60 soat o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib, kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga **7-semestrda 4 kredit beriladi.**

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi.**

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

**5 (a'lo) baho** – talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda, darsda muntazam qatnasha oladi; ma'ruza va amaliy darslarda faol ishtirok eta oladi; mustaqil ta'lim mavzularini belgilangan talab asosida topshira oladi; oraliq va yakuniy nazoratlarda vaqtida ishtirok eta oladi;

**4 (yaxshi) baho** – talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda, mustaqil ta'lim mavzularini belgilangan talab asosida topshira oladi; oraliq va yakuniy nazoratlarda vaqtida ishtirok eta oladi.

**3 (qoniqarli) baho** – talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda, mustaqil ta'lim mavzularini belgilangan talab asosida topshira oladi; oraliq va yakuniy nazoratlarda vaqtida ishtirok eta oladi;

**2 (qoniqarsiz) baho** – fan mohiyatini tushuna olmaydi; fanga oid nazariy bilimlarni o'zlashtira olmaydi; ma'ruza va amaliy darslarda to'liq ishtirok eta olmaydi; mustaqil ta'lim mavzularini belgilangan talab asosida topshira olmaydi, oraliq va yakuniy nazoratlarda vaqtida ishtirok eta olmaydi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** o'tilgan mavzular asosida tezis va maqolalarga taqriz yozish shaklida, **2 marta** o'tkaziladi.

Topshiriqni bajarish uchun umumiy **80 daqiqa** beriladi.

**Baholash mezoni:**

| T/r | O'lchanadigan xususiyatlar | Ball |
|---|---|---|
| 1. | Tadqiqot mavzusi to'g'ri tanlangani izohlanishi | 5 |
| 2. | Annotatsiya qismi haqida fikrlar mavjudligi | 5 |
| 3. | Ilmiy yangiliklar izohlanishi | 5 |
| 4. | Tanlangan muammoning izohlanishi tahlil qilingani | 5 |
| 5. | Muallifning dalillardan foydalanishi izohlangani | 5 |
| 6. | Havola, bibliografik ma'lumotlarni berilish tartibi tahlil qilingani | 5 |
| 7. | Muallifning kamchiliklari tahlil qilingani | 10 |
| 8. | Muallifning yutuqlari tahlil qilingani | 10 |
| 9. | Talabaning shaxsiy fikr-mulohazalari taklif qilingani | 10 |
| 10. | Tadqiqot ishining ilmiy uslubda yozilgani tahlil qilingani | 5 |
| 11. | Mustaqil ta'lim ishining 50 foizi bajarilgani | 35 |
| | **Jami:** | **100** |
| | **5 baho 95-100** | |
| | **4 baho 71-94** | |
| | **3 baho 60-70** | |

**Yakuniy nazorat:** semestr davomida o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini amalda qo'llashlari asosida **og'zaki taqdimot** shaklda o'tkaziladi. Har bir talaba qiziqishlaridan kelib chiqib til ta'limiga oid muayyan bir mavzuda ilmiy maqola yozishadi va yozilgan maqolani belgilangan (5-6 daqiqa) vaqt ichida og'zaki taqdimot qilib berishadi. Yozilgan maqola baholash mezonlari asosida baholanadi.

**Baholash mezoni:**

| T/r | O'lchanadigan xususiyatlar | Ball |
|---|---|---|
| 1. | Ilmiy muammoni aniqlab shu asosida mavzu tanlay olgani | 5 |
| 2. | Annotatsiya to'g'ri shakllantirilgani, kalit so'zlar 5-7 ta so'zdan iborat ekanligi | 5 |
| 3. | Kirish qismida mavzuning dolzarbligi izohlangani, mavzuga oid tadqiqotlar, nazariy qarashlar berilgani | 10 |
| 4. | muammoning yechimi berilgan, qo'yilgan tadqiqot savollariga javob berilgani | 10 |
| 5. | Mavzu xususiyatlari ochib berilganligi, dalillar izohlangani | 5 |
| 6. | Havola, bibliografik ma'lumotlar to'g'ri tartibda berilgani | 5 |
| 7. | Ilmiy xulosalarning mavjudligi | 10 |
| 8. | Talabaning shaxsiy fikr-mulohazalari taklif qilingani | 10 |
| 9. | Tadqiqot ishining ilmiy uslubda yozilgani | 5 |
| 10. | Mustaqil ta'lim ishining 50 foizi bajarilgani | 35 |
| | **Jami:** | **100** |
| | **5 baho 95-100** | |
| | **4 baho 71-94** | |
| | **3 baho 60-70** | |



## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 7-SEMESTR

### 1. Ma'ruza mashg'ulotlari

| T/R | Ma'ruza mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1. | Ilmiy tadqiqotning turlari va umumiy tavsifi, asosiy usul va vositalari | ilmiy tadqiqot, tezis, maqola, mavzu, kalit so'zlar, annotatsiya, kirish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar tadqiqot metodlari va tamoyillari | 2 |
| 2. | Muammoni aniqlash, o'rganish va yechimi bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirish | muammo, tadqiqot savoli, birlamchi gipoteza, nazariy va amaliy tadqiqot | 2 |
| 3. | Kichik ilmiy tadqiqotga xos xususiyatlar va tahlili | tezis, maqola, taqriz | 2 |
| 4. | Ilmiy maqolani chop qilish: xalqaro va respublika konferensiyalari, jurnallar | | 2 |
| 5. | Milliy va xalqaro tadqiqotlarning qiyosiy tahlili. Xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan jurnallarga maqola tayyorlash talablari va prinsiplari | xalqaro ma'lumotlar bazasi | 2 |
| 6. | Ilmiy tadqiqotda tajriba-sinov jarayonining olib borilishi | tajriba, tajriba ishtirokchilari, baholash mezonlari, topshiriqlar, natijalarni xulosalash | 2 |
| 7. | Katta ilmiy tadqiqotga xos xususiyatlar va tahlili | kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, dissertatsiyalar | 2 |
| 8. | Bitiruv malakaviy ishiga xos xususiyatlar va tahlili | bitiruv malakaviy ishi | 2 |
| 9. | Ilmiy ish etikasi. Manba va materiallardan iqtiboslar keltirish. Tadqiqot bibliografiyasi | ilmiy ish tarkibida qisqartma va havolalar berish tartibi, bibliografik ma'lumotlarni berish | 2 |
| 10. | Ilmiy ishni himoya qilish tartibi | bitiruv malakaviy ishi, taqriz, dissertatsiya | 2 |
| | | **Jami:** | **20 s.** |

### 2. Amaliy mashg'ulotlar

| T/R | Amaliy mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1. | Til ta'limiga oid tadqiqotda muammoning qo'yilishi, mavzu tanlash | muammoning qo'yilishi, muammoni tanlash yo'llari, tadqiqot muammosining manbalari, tadqiqot bosqichlari, tajriba-sinov jarayoni | 2 |
| 2. | Ilmiy tadqiqot olib borishning asosiy usullari | eksperimental, so'rovnoma, analiz va solishtirish | 2 |
| 3. | Pedagogik tadqiqot obyekti, predmetini, maqsad va vazifalarini aniqlash | obyekt, predmet, maqsad va vazifa, ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyati | 2 |
| 4. | Ilmiy tadqiqotning farazi | pedagogik tadqiqot dolzarbligini aniqlash, farazini shakllantirish | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5. | Pedagogik tadqiqotning umumiy tamoyillari | faraz, tamoyil, yondashuvlar | 2 |
| 6. | Mavzuning ilmiy-metodik adabiyotini o'rganish, adabiyotlarni saralash | ilmiy adabiyotlar, ijtimoiy tarmoq saytlaridan axborot qidirish, saralash | 2 |
| 7. | Maqola, tezis va taqrizga xos xususiyatlar. Respublika va xalqaro konferensiyalarda chiqqan tezislar tahlili | Tezis mavzusi, annotatsiya, maqola va tezis farqi, maqolalar tahlili | 2 |
| 8. | Tezis yozish | tezis, maqola, taqriz, kalit so'zlar, annotatsiya | 2 |
| 9. | Tezisga taqriz yozish | tezis, maqola, taqriz, kalit so'zlar, annotatsiya | 2 |
| 10. | Adabiyotlar va arxiv materiallarini o'rganish, kuzatish, suhbat, so'rov, test, eksperiment – empirik tadqiqot metodlari sifatida | kuzatish, suhbat, so'rov, test, empirik tadqiqot metodlari | 2 |
| 11. | Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqish metodikasi Tadqiqot natijalari tahlili va xulosasi | muammoni tanlash, tadqiqot, tadqiqotga nom qo'yish, tadqiqot bosqichlari, obyekti, tajriba ishtirokchilari, natijalar tahlili va xulosasi | 2 |
| 12. | Tadqiqot natijalari tahlili va xulosasi | parametrlarni aniqlash, matematik-statistik metodlar | 2 |
| 13. | Pedagogik ilmiy tadqiqot samaradorligini aniqlash mezonlari | parametrlarni aniqlash, matematik-statistik metodlar | 2 |
| 14. | Ilmiy tadqiqotda qisqartma, havola va bibliografik ma'lumotlarni berish tartibi | ilmiy ish tarkibida qisqartma va havolalar berish tartibi, bibliografik ma'lumotlarni berish | 2 |
| 15. | Ilmiy maqolani chop qilish: xalqaro va respublika konferensiyalari, jurnallar | ilmiy maqolani rasmiylashtirish, chop etish, ilmiy bazalardan jurnal tanlash | 2 |
| 16. | Milliy va xalqaro tadqiqotlarning qiyosiy tahlili. Xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan jurnallarga maqola tayyorlash talablari va prinsiplari | xalqaro ma'lumotlar bazasi | 2 |
| 17. | Ilmiy maqola yozish | tezis, maqola, taqriz, kalit so'zlar, annotatsiya | 2 |
| 18. | Ilmiy maqolaga taqriz yozish | tezis, maqola, taqriz, kalit so'zlar, annotatsiya | 2 |
| 19. | Kurs ishi tarkibi va unga qo'yiladigan talablarni o'rganish, yakunlash, himoya qilish va baholash | kurs ishiga rahbarlik, ilmiy-tadqiqot usullarini aniqlash, himoya qilish, kurs ishini baholash, ro'yxatini tuzish tartibi | 2 |
| 20. | Bitiruv malakaviy ishini yozish va rasmiylashtirish qoidalari bilan tanishish | bitiruv malakaviy ishi, tadqiqot obyekti va predmetining xarakteristikasi; tadqiqot metodlari xarakteristikasi (modellar, statistik hisob-kitoblar), tadqiqot bajarilishi bosqichlarining yoritilishi | 2 |
| | | **Jami:** | **40 s.** |



### 3. Mustaqil ta'lim ishlari

Mustaqil ishni tayyorlashda fan xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;

"Til va adabiyot ta'limi", "Xalq ta'limi" kabi sohaga oid ilmiy jurnallardagi maqolalar bilan tanishish va tezislar tayyorlab borish;

Taqdimotlar amaliy mashg'ulotlarda muhokama qilinadi va baholanadi.

| № | Mustaqil ta'lim mavzu va topshiriqlari nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| 1. | Internet tarmog'i orqali mavzuga oid adabiyotlarni shakllantirish. Ilmiy tadqiqot ishida ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish tartibini keltirish | mutolaa, markirovka, maqola, tezis, kitob tarkbiy tuzilmasi, ilmiy-metodik adabiyot, ilmiy-tadqiqot ishi, dissertatsiya, bibliografiya, ko'chirma, sitata, markirovkalash, havola, snoska | 6 |
| 2. | Ilmiy tadqiqot turlarini olib borishning asosiy usullari | matematik usul, tenzometrik o'lchash, obyektiv bilimlar, sistemalashtirish, tamoyil (postulat), aksioma, ilmiy qonunlar, nazariyalar va farazlar, empirik ilmiy faktlar, uslublar, usullar va tadqiqot yo'llari, kuzatish, qiyoslash, tahlil | 6 |
| 3. | Til ta'limiga oid yozilgan kurs ishiga taqriz yozish. Kurs ishi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni taqdimot qilish | kurs ishi, nazariy va amaliy ko'nikma, reja, kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar, ilovalar, kurs ishiga rahbarlik, ilmiy-tadqiqot usullarini aniqlash, himoya qilish, kurs ishini baholash | 6 |
| 4. | Milliy va xalqaro tadqiqotlarning qiyosiy tahlili. Xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan jurnallarga maqola tayyorlash talablari va prinsiplari mavzusida taqdimot tayyorlash | xalqaro ma'lumotlar bazalari | 6 |
| 5. | Kurs ishi tarkibi va unga qo'yiladigan talablarni o'rganish, yakunlash, himoya qilish va baholash | kurs ishiga rahbarlik, ilmiy-tadqiqot usullarini aniqlash, himoya qilish, kurs ishini baholash, ro'yxatini tuzish tartibi | 6 |
| 6. | Bitiruv malakaviy ishini yozish va rasmiylashtirish qoidalari bilan tanishish | bitiruv malakaviy ishi, tadqiqot obyekti va predmetining xarakteristikasi; tadqiqot metodlari xarakteristikasi (modellar, statistik hisob-kitoblar), tadqiqot bajarilishi bosqichlarining yoritilishi | 6 |
| 7. | Ilmiy tadqiqotda qisqartma, havola va bibliografik ma'lumotlarni berish tartibi | ilmiy ish tarkibida qisqartma va havolalar berish tartibi, bibliografik ma'lumotlarni berish | 6 |
| 8. | Adabiyotlar va arxiv materiallarini o'rganish, kuzatish, suhbat, so'rov, test, eksperiment – empirik tadqiqot metodlari sifatida | kuzatish, suhbat, so'rov, test, empirik tadqiqot metodlari | 6 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 9. | Ilmiy tadqiqotda tajriba-sinov ishlarini olib borish (taqdimot shaklida) | tajriba-sinov, dastur, tuzilma, tajriba sinov ishlari dasturi, tamoyillar, metodikasi | 6 |
| 10. | Ilmiy maqolani chop qilish: xalqaro va respublika konferensiyalari, jurnallar | ilmiy maqolani rasmiylashtirish, chop etish, ilmiy bazalardan jurnal tanlash | 6 |
| | | **Jami** | **60 s.** |

## 6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI


### Asosiy adabiyotlar

1. Asilova G. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2020. –128 b.
2. Musulmonova N. Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Cohen L. and etc. Research methods in Education. London- New York, 2007.
2. LM Camarinha-Matos. Scientific research methodologies and techniques. 2009.

### Axborot manbalari:

1. https://journals.sagepub.com/home/ltr
2. https://studfile.net/preview/7518529/page:3/
3. file:///C:/Users/User/Downloads/pedagogik-ilmiy-tadqiqot-metodlari.pdf



| **Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot** | |
|---|---|
| **Muallif:** | S.Kuldasheva, O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dots.v.b.,p.f.f.d.(PhD) |
| **Email:** | kuldasheva1777@gmail.com |
| **Tashkilot:** | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti |
| **Taqrizchilar:** | G. Asilova, O'DJTU professori, pedagogika fanlari doktori. M.Shodmonova, O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD). |


Mazkur sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashining 2025-yil 28 - avgustdagi 1 -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i: V. Nazarov
Kafedra mudiri: S. Muhamedova
Tuzuvchi: S. Kuldasheva
ARM direktori: Z. Jumayeva